

# UZBEKISTAN AIRWAYS

## INFLIGHT MAGAZINE



**04**

Steampunk -  
KELAJAKKA QAYTISH

**18**

Noto'g'ri  
TEATR

**22**

Motohaydovchilarning  
SHARQONA SAYOHATI

**28**

Tbilisiga tashrif  
BUYURISH UCHUN  
5 SABAB

Steampunk BACK TO THE FUTURE

Theatre out OF THE BOX

Biker's party IN UZBEKISTAN

5 reasons to visit TBILISI



**UZBEKISTAN AIRWAYS  
TECHNICS**

**UAT** Since 1924

# LARGEST MRO PROVIDER IN CENTRAL ASIA

**Markaziy Osiyoda texnik ko'rik va ta'mirlash  
xizmatlarini ko'rsatuvchi eng yirik korxona**

 51 Amir Temur Ave.,  
Tashkent, Uzbekistan

 71 255 68 22  
 [www.airtech.uz](http://www.airtech.uz)

# Uzbekistan Airways

## Bort jurnali Inflight Magazine

#02, June, (107) 2022

**Tahririyat kengashi raisi**  
Chairman of the Editorial Board

**Umid Xusanov**

**Bosh muharrir**  
Editor-in-Chief

**Yulduz Latipaeva**

**Dizayn va sahifalovchi**  
Design & Layout

**Nodira Shoxizindayeva**

**Muharrir**  
Editor

**Benjamin Bairrington**

**Manzil:**  
Amir Temur shohko‘chasi, 41, Toshkent, 100015,  
O‘zbekiston  
Tel.: +998 78 140-45-20,  
+998 78 140-45-21  
1993-yildan beri nashr etiladi.  
«UZBEKISTAN AIRWAYS» AJ Tahririyyati

**Address:**  
Amir Temur Avenue, 41, Tashkent, 100015, Uzbekistan  
Tel.: +998 78 140-45-20,  
+998 78 140-45-21

Published Since 1993 Publisher – JSC «UZBEKISTAN AIRWAYS»

ISSN 2181-8266

**Tahririyat jamoasi**  
Editorial team

**Ozoda Azimova**  
**Kamola Ikramova**  
**Bahodir Imomjonov**  
**Darya Penzova**  
**Matluba Kuliyeva**  
**Jamoliddin Hamdamov**

**Tarjimon**  
Interpreter

**Madina Azizova**

**Foto**  
Photo

**Georgiy Namazov**  
**Abdulaziz Xalilov**

**Reklama bo‘yicha murojaat:**  
For advertisement:

+998 78 140-45-20  
+998 78 140-45-21

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va  
ommaviy kommunikatsiyalar agentligida  
03.01.2007-yilda 0115 raqami bilan  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

The magazine is registered by Press and Information  
Agency of Uzbekistan on 03.01.2007. Registration  
number No 0115



«PRINTUZ» MCHJ bosmaxonasida chop  
etilgan. Buyurtma № 685 Adadi 10 000  
Manzili: Toshkent sh., Mirobod tumani,  
Mirobod ko‘chasi, 41/2 -uy

Printed at PRINTUZ Ltd. Order # 685 Circulation - 10 000  
Address: 41/2, Mirabad st. Tashkent

# MUNDARIJA

# CONTENTS

04 | Steampunk – keljakka qaytish

12 | Kelajak bugundan boshlanadi

17 | “Noto‘g‘ri” teatr

22 | Motohaydovchilarning sharqona sayohati

26 | Aviachipta pulini qanday qaytarib olishim mumkin?

28 | Tbilisiga tashrif buyurish uchun 5 sabab

32 | Yo‘lovchilar uchun foydali ma’lumotlar

08 | Steampunk back to the future

15 | The future begins today

19 | Theatre of outside the box

24 | Bikers party in Uzbekistan

27 | How can I get my refund

28 | 5 reasons to visit Tbilisi

32 | Useful information for passengers



# Hampton – aniq tanlov

Qayerda bo'lsangiz ham, o'zingiz istagan  
tarzda dam oling.

Bizni tanlagan mehmonlarga doimo qulaylik va funksionallikni taklif qilamiz. Mehmonxonamizda qulay yashash uchun hamma narsa mavjud.

Hampton by Hilton  
Tashkent  
17, Istiqbol str.,  
Tashkent, Uzbekistan,  
100047  
+998712052200  
<http://hampton.com/>

- Bepul issiq nonushta
- Zamonaviy fitness markazi 24/7
- Biznes markazi 24/7
- Bepul Wi-Fi

## The easiest decision of your trip

Delivering the exceptional stay you deserve, everywhere you want to be.

Intuitively designed for both functionality and comfort, it's our priority to give you **a seamless experience – every time**. With a variety of amenities you can count on, you will have everything you need to stay on track.

Hampton by Hilton Tashkent  
17, Istiqbol str.  
Tashkent, Uzbekistan, 100047  
+998712052200  
<http://hampton.com/>

- Free, hot breakfast
- Modern fitness centre 24/7
- Business center 24/7
- Free WiFi



Hampton - bu butun dunyo  
bo'ylab 2700 ta  
mehmonxonadir. Qaysi  
birida qolsangiz, sizni  
samimiyl tabassum va  
e'tibor bilan kutib olishadi.  
Chunki mehmonlarimiz  
xursand bo'lsa, biz ham  
xursandmiz.

**Bu 100 foiz Hampton™  
kafolatidir**

With 2,700 locations across the globe,  
wherever and whenever you stay with us  
you'll be welcomed with a warm smile and  
thoughtful service that makes you happy –  
because that's what makes us happy.  
**That's the 100% Hampton Guarantee™**

# Steampunk - kelajakka qaytish



O'tgan 20-asr butun insoniyat uchun katta inqilobiy davr bo'ldi. U texnik taraqqiyot tufayli, hayotni bir necha bor o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa butunjahon madaniyatining rivojlanishida o'z aks-sadosini berdi. Ushbu materialda biz zamonaviy dizaynda Stimpank (Steampunk) atamasi bilan ma'lum bo'lgan janrga to'xtalib o'tmoqchimiz. Bu o'tgan asrning 80-yillari so'ngida Yevropada paydo bo'lgan nisbatan yosh uslub hisoblanadi. Biroq, u so'nggi yillarda tobora ko'proq ommalashib bormoqda.

## Steampunk o'zi aslida nima?

Bu o'zaro qarama-qarshi birikma ma'nosini berib, kelajakni talqin qilishda o'tmishning elementlariga murojaat qilishni anglatadi. Bu – dunyoning sanoat rivojlanishi natijasida qanday ko'rinishga ega bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi mualliflarning fikrlaridir. O'sha davrda kelajak rivoji mexanizatsiyalash sohasiga e'tibor orqali taxmin qilinishiga qaramay, hech kim elektronika to'g'risida to'liq tasavvurga ega emas edi. Shu sabab, bug' dvigatellari birlashmasi – kelajak mashinalari, Steampunk talqinida taqdim etildi. Bu uslub boshqa uslublardan farq qiladi. U xuddi surbetlik, ochko'zlik, axloqsizlik, pessimizm va jamiyatning ijtimoiy tabaqlanishi ustidan kulayotgandek tuyuladi. Shunday qilib, bu uslubda juda ko'p kitch (butun ommaga qaratilgan, uslub jihatdan g'aliz, lekin ko'pchilikka humor hissini beruvchi uslub) namunasini ko'rish mumkin.

# D

Bugungi kunda steampunkni ommaviy madaniyatning barcha sohalarida: moda sanoati, kino sohasi, musiqa, dizayn, tasviriy san'atda ham uchratish mumkin. So'nggi paytlarda O'zbekistonga ham shunday jasur va dadil ko'rinishdagi uslub kirib keldi. 2017-yildan boshlab Toshkent markazida erkinlikni, mustaqillikni sevuvchi, kinoya san'atini uddasidan chiqo oladigan barchani o'ziga tortadigan maskan faoliyat ko'rsatib kelmoqda.



## Steampunkni Toshkentga olib kelgan Sanjar Maqsudov ushbu g'ayrioddiy uslub haqidagi o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashdi:

– Umuman olganda, Steampunk – bu agar dunyo bug‘ dvigatelining rivojlantirish yo‘lidan ketganda, qanday ko‘rinishga ega bo‘lishi to‘g‘risidagi fantaziya. Bu 19-asrning ilmiy fantastikasi hisoblanadi. Uning asoschilaridan biri – yozuvchi Jyul Verndir. Men uchun Steampunk bolaligidagi fantaziyadir. Jyul Vern bolaligidagi eng sevimli yozuvchim edi.

2000-yilda men Budapeshtda talaba bo‘lib, shaharni kezib yurgan paytimda, tasodifan yerto‘ladagi restoranga kirib qoldim. Ichkariga kirganimda, uning interyeridan hayratga tushdim. Bu go‘yoki “Nautilus” suv osti kemasi ichki qismi edi (Jyul Vernning “Sirli orol”, “Suv ostida 20 ming kilometr” romanlari – 19-asr – tahririyat izohi). Restoran bir qarashdayoq Steampunk atmosferasini eslatardi:

hamma joyda mis va bronza mexanizmlar, g‘alati analog qurilmalar, qimmatbaho mebellar, baxmal, jez bilan qoplangan devorlar. Ko‘p yillar davomida o’sha kuchli taassurot meni tark etmadi.


Avvaliga ommaga bu uslub bunchalik darajada yoqadi deb o‘ylamagandim. Men buni faqat “norasmiy aholi qatlami” qadrlaydi deb o‘ylagandim. Biroq, meni hayratga solgan jihat shundaki, Steampunk muxlislari tobora ko‘payib, bu ko‘pchilikning e’tiborini qozondi va yangi ixlosmandlarini jalb eta boshladi.

Steampunk, aslida, insonni boshqa dunyoga olib kiradi, go‘yo uni tafakkur qilishga va ko‘p narsalar ustida qaytdan fikr yuritishga chorlaydi.



Ushbu uslub allaqachon boshqalardan farq qiladigan uslub bo‘lishdan to‘xtadi va dunyo madaniyatining to‘la huquqli qismiga aylanib ulgurdi, uning tarafdorlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq, bugungi kunda hamma ham Steampunkni to‘g‘ri tushunib, unga munosib baho bera olmaydi. Shunga qaramay, ko‘pchiligidan uni anglab yetgach, endi unga befarq qola olmaysiz.





# STEAMPUNK

— back to the future —



The Twentieth century was relatively revolutionary for all of humankind. Due largely to technological progress, and the dramatic increase in the average lifespan. This revolution resonated in the development of a global culture.

In this article we want to explore the genre of modern design known as Steampunk. This is a relatively new style that emerged in the late 80's in Europe. However, it has garnered an increased popularity in recent years.



## What does Steampunk stand for?

It is incompatible combination used to describe interpretation of the elements of the past into the future. Regarding the literary standpoint it is what the world would be like as a result of a parallel industrial development. At that time, the future was envisioned via the progress of mechanization. In this genre, electronics are not considered. Therefore, units on steam engines, the machines of the future, are displayed in the interpretative style of Steampunk. This style differs from others. It seems to satirize excessive cynicism, rapacity, depravity, pessimism and social stratification in society. Thus, a lot of kitsch can be seen here.



Today, steampunk can be found in all spheres of mass culture: the fashion industry, cinema, music, design, fine arts.

Recently, such a seemingly confident and daring style has entered Uzbekistan too. Since 2017, the focal point of Tashkent has been opened for everyone who loves freedom, independence and irony.

#### **Sanjar Maksudov, the man who brought Steampunk to Tashkent, shares his impressions of this eccentric style:**

- In general, Steampunk is a fantasy about what would the world be like if it followed the path of development of a steam engine. This is the science fiction of the 19th century. One of its founders is the writer Jules Verne. Personally, Steampunk is the fantasy of my childhood. Jules Verne was my favorite writer in my childhood. In 2000, as a student in Budapest, I wandered around the city and got into a restaurant in the basement. When I entered, I was amazed by the interior design.

It was like inside of a "Nautilus" submarine (Jules Verne's novels "The Mysterious Island", Twenty Thousand Leagues Under the Seas" 19th century- editorial note). The restaurant was in harmony with the atmosphere of Steampunk: there were copper and bronze mechanisms, strange analog devices, expensive furniture, velvet everywhere and walls were covered with brass. That strong impression remained in my mind for many years.

Initially, I did not expect that our audience would like this style so much. At first, I thought that only "informals" would appreciate it. However, to my surprise, Steampunk fans continued to increase attracting a lot of attention and new enthusiasts. It actually encircles a person into another facet, as if it makes a person reflect.

This style has already ceased to be a subculture, becoming a full-fledged part of the global culture, and the number of its adherents is increasing every year. However, even today, not everyone can see and appreciate Steampunk at its true worth. Nevertheless, having learned it, many of us can no longer remain indifferent.







**NOBILE**

MEDITERRANEAN  
RESTAURANT

## Nobile Restaurant -

is a combination of elegance in the interior and an impeccable menu, that satisfies the tastes of the most sophisticated gourmets.

Extremely hard to resist...

332 Abdullah Kadiri st.

+998 94 628 88 88



nobile.uz



nobile.uz

Xizmatlar litsenziyalangan



## Obi Hayot Restaurant -

is a piece of the charming East.

Bright, harmonious, rich!

Give in to temptation, enjoy the food,  
feel the taste of life, and rest your soul.

Be our guest.

4 Dzharkurganskaya st.

+998 97 350 88 88



obihayotrest




obi\_hayot

Xizmatlar litsenziyalangan

# KELAJAK

## BUGUNDAN BOSHLANADI



Tejamkor va arzonroq bo'la boshlagan aqlli texnologiyalar hayotimizni qulay bo'lishiga yordam beradi. Kelajak texnologiyasini yaratishda eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu an'anaviy usullarning real muqobili, qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqishdir. Insoniyat o'zining mayjudligi uchun qarzdor bo'lgan beminnat energiya manbai mayjud. Bu – Quyoshdir. Yilning yetmish foizdan ortiq kuni quyoshli bo'lgan o'lkamizda, fotoelektr stansiyalarini barpo etish nihoyatda muhim va dolzarb.

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun innovatsiyalar yo'lida ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Yer osti tabiiy gaz, neft va ko'mir zahiralari cheksiz emasligi hech kimga sir emas. Yana bir necha o'n yilliklardan so'ng, sayyoramiz aholisining tez suratda o'sishini hisobga oladigan bo'lsak, insoniyat muqobil va arzonroq energiya manbalariga yana ham ko'proq muhtoj bo'ladi. Shu bois, saxovatli quyosh nurlaridan foydalanish usuli shunchalar oson va sodda, shu bilan bирgalikda oqilona yo'l hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida, quyosh manbaidan tashqari, kichik gidroenergetika, shamol, biomassa va geotermal energiya ham dolzarb resurslarga aylanib qoldi. Ushbu manbalardan foydalanishga asoslangan texnologiyalarda atmosferani iflosantiruvchi moddalarni chiqaruvchi chiqindilarning mavjud emasligi sababli ular ekologik toza hisoblanadi. Bundan tashqari, qayta tiklanadigan energiya olis, tog'li va yetib borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan aholi punktlari uchun iqtisodiy jihatdan foydalanilishi mumkin bo'lgan yagona maqbul energiya manbasiga aylanishi mumkin. Eng yangi qurilmalar elektr kabellari va tizimli aloqa vositalarini talab qilmaydi, ular avtonom tartibda o'rnatiladi.

O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish energetik, ekologik va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlaydi, shuningdek, mamlakatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Ushbu yangi energiya manbalarini o'zlashtirish tabiiy resurslarni saqlab qolish va kelajak avlodlar uchun ekologik vaziyatni yaxshilashning garovidir.

O'zbekistonda bu borada muayyan qadamlar qo'yilmoqda, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish bilan bog'liq qator ekologik dasturlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizni quyosh nuriga boy ekanini inobatga olib, muqobil energiya manbalarini joriy etish loyihamonlari ishlab chiqishda asosiy e'tibor quyosh energiyasidan samarali foydalanishga qaratilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish asosida quyosh energiyasidan foydalanish sohasida yanada chuqurroq ilmiy va eksperimental tadqiqotlar olib borish maqsadida Xalqaro quyosh energiyasi instituti tashkil etildi, quyosh energiyasi salohiyatini iqtisodiyotning turli tarmoqlari va boshqa sohalarda ham amaliy qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Samarqand viloyatida Markaziy Osiyodagi eng yirik 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasini qurish bo'yicha tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Mazkur stansiyaning foydalanishga topshirilishi bir tumanni to'liq elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini beradi.

"Jizzax" maxsus industrial zonasid hududida quyosh kollektorlari ishlab chiqaruvchi O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasi o'z faoliyatini yuritmoqda.

Bugungi kunda chet el sarmoyasi ishtirokida va xorijiy sheriklik asosida boshqa qator yirik loyihamonlari ham amalga oshirilmoqda. Yangi qurilmalar – noan'anaviy energiya manbalarini ishlab chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun mustahkam ilmiy-texnologik baza yaratildi.



Qurilish bosqichidagi va 2023-yil oxirigacha ishga tushirilishi kutilayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari loyihamonlari O'zbekistonga umumiy hisobda kamida 25 foizgacha energiyani shamol va quyosh manbalaridan olish imkonini beradi.

Dala hovlilar, fermer xo'jaliklarini yoritish, radio, televizor va boshqa uskunalarini elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan fotoelektr stansiyalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.

Turarjoy binolari va xalq xo'jaligi tarmoqlarini issiq suv bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan quyosh energiyasi orqali suvni isitadigan moslamalariga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Ushbu texnologiyalarning yuqori darajadagi ishonchliligi, samaradorligi, foydalanishga qulayligi, zamonaviy dizayni va tejamkorligi kelajakka ishonch bilan qarashga imkon beradi.



# THE FUTURE

**THE FUTURE**  
begins today

Smart technologies which are economical and cheaper help to make our lives more comfortable. One of the most promising directions in creating future technology is to develop renewable energy sources. These renewable energy sources should be developed in parallel with real alternatives to traditional methods. In particular, there is a source of energy that humankind is indebted for their existence. The Sun.

In our country, where 70 percent of the year is sunny, the construction of photovoltaic power stations is paramount.

The implementation of renewable energy sources is a priority for the Uzbek economy on the path to innovation. Underground natural gas, oil and coal reserves are limited resources.

In the last few decades, the planet's population has experienced a rapid growth.

In light of this, people will need even more alternative and cheaper energy sources. Therefore, harnessing the infinite and abundant source of sunlight seems to be both simple as well as reasonable.



*In Uzbekistan, besides from solar resources, small hydropower, wind resources, biomass and geothermal energy resources have also gained recognition. Technologies based on the use of these resources are considered environmentally friendly, because they do not produce waste products in turn yielding air pollutants. In addition, renewable energy can become the only reasonable source of energy that can be used economically for the locations of population situated in remote mountainous and inaccessible areas.*

Finally devices that do not require power cables and systematic communication devices can be installed in an autonomous (stand-alone) mode.

The use of renewable energy sources in Uzbekistan will ensure energy, environmental and economic security, and contribute to the sustainable development of the country. The development of these new energy sources is a guarantee of preserving natural resources and improving the environmental situation for future generations.

Uzbekistan is taking certain steps in this sphere, launching a number of environmental programs related to the implementation of renewable energy sources. Accordingly, our country is rich in sunlight. Thus, the main focus on the development of projects for the introduction of alternative energy sources is being directed to the efficient use of solar energy.

In particular, by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, the International Solar Energy Institute was established in order to carry out more in-depth scientific and experimental research in the field of solar energy on the basis of expanding international cooperation and developing proposals for the practical use of the potential of solar energy in different industries and sectors of the economy.

In Samarkand region, organizational work is being carried out to build the largest solar photovoltaic plant in Central Asia with a capacity of 100 MW.

By launching of this station, one district will be provided with full electricity.



An Uzbek-Chinese joint venture producing solar collectors operates in the Jizzakh special industrial zone. Today, a number of other large projects are being implemented with the participation of foreign investment and in cooperation with foreign partners.

A solid scientific and technological base has been created for the production and maintenance of new devices - non-conventional energy sources.

Renewable energy projects under construction and expected to be launched by the end of 2023 will allow Uzbekistan to use at least 25 percent of its total wind and solar energy.

Enterprises producing photovoltaic power plants designed to provide field yards and farm lighting with electricity and electricity supply of radios, televisions and other equipment are operating successfully.

There is a growing demand for solar water heaters to provide residential buildings and branches of the national economy with hot water. The high level of reliability, efficiency, simplicity of the usage, modern design and economic effectiveness of these technologies allow us to look at the future with confidence.

# “NOTO‘G‘RI” TEATR

“Ilhom” teatri ko‘p yillar davomida nafaqat o‘z tomoshabinlarini, balki turfa xil tuyg‘ular ixlosmandi bo‘lgan san‘atkorlar, musiqachilar, sayyoohlar va boshqa yorqin hissiyotli insonlarni ham ilhomlantirib kelmoqda.

“Ilhom” boshidanoq, yosh, iste’dodli, ijodkor va dadil insonlarni o‘z bag‘riga oldi. Bu yerda teatr yoshlari bilan bir qatorda rassomlar ham jam bo‘lishdi, hatto O‘zbekistondagi ilk diskotekalar ham shu yerda o’tkazilgan. Aynan shu joyda yangi va eksperimental g’oya tug‘ildi.

- Bu yangi formatdagi teatr studiyasi edi: ustunlarsiz va sahnasiz. O’sha payt uchun bu ancha dadil va g‘ayrioddiy harakat edi. Bu yerda boshqa davlat teatrlarining mahoratlari aktyorlari ham ishlagan, biroq ular bu yerdan butunlay yangi g‘oyalarni izlashar edi. Shu bois, ular asosiy ishlaridan so‘ng bu yerga kelib, tuni bilan mashq qilishar edi, – deydi teatrning badiiy rahbari Boris Gafurov.

Natijada, studiya haqiqiy teatrga aylandi va “Ilhom” nomini oldi.

Bu yil kuzda tomoshabinlar 47-teatr mavsumini kutib oladilar, aslida bu andegraund (zamonaviy san‘atdagi umume’tirof etilgan qadriyatlar, ijtimoiy va badiiy me’yorlardan chekinish bilan tavsiflanadigan yo‘nalishdagi) teatr uchun deyarli imkonsiz bo‘lsada, “Ilhom” davlat sarmoyalarisiz, teatrga chipta savdosidan tushgan pul hisobidan o‘z faoliyatini yuritib kelmoqda.

Eng boshidanoq bu yerda sovet senzurasi tomonidan taqilangan sahna asarlari namoyish qilingan. Bu kabi sahna asarlari Leningrad yoki Moskvada emas, balki shu yerda, Toshkentda qo‘yilgan.

Tomoshabinlar spektakllarga oldindan ro‘yxatdan o‘tish orqali bepul tashrif buyurishgan. Ba’zilar kelgach, kamera teatrining kichik sahnasida sodir bo‘layotgan mo‘jizani jimgina tomosha qilardi. Ba’zan spektakllar tungi soat o‘n ikki yoki birda boshlanishi ham mumkin edi. Bir necha marotaba teatrni yopishga urinishlar bo‘ldi, shov-shuvli buyurtma maqolalar e’lon qilindi, tuhmatga to‘la xatlar yozildi. Biroq “Ilhom” hech narsaga qaramasdan, yashab qola oldi.





Vaqt o'tishi bilan teatr tobora ommalasha boshladi va endi unga chiptalar sotila boshlandi. "Ilhom"ni chet ellarga taklif qila boshlashdi. Dunyoning 22 mamlakatida, jumladan Avstriya, Bolgariya, Germaniya, Italiya, Gollandiya, Daniya, Norvegiya, Irlandiya, Yugoslaviya, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Fransiya, Polshada o'tkazilgan 35 dan ortiq Xalqaro teatr festivallarida teatrning spektakllari taqdim etildi.

1989-yilda ilk teatr studiyasi ochildi va "Ilhom"da hozirda faoliyat yuritayotgan aktyorlarning aksariyati shu studiya bitiruvchilari.

Bugungi kunda "Ilhom" teatri 2007-yilda fojeali vafot etgan uning asoschisi Mark Vaylning nomi bilan ataladi. Ko'rgazma zalidan butun dunyodagi rassomlar va fotosuratchilarining ko'rgazmalari o'rin olgan. Bundan tashqari, bu yerda: llkhomRockFest – rok musiqachilarining chiqishlari, llkhomJazzClub – jazz kechalari, Artyom Kim laboratoriyasining "Teatr + Musiqa" mahorat darslari, Omnibus ansamblı musiqiy kechalari, inklyuziv teatr laboratoriyasi – imkoniyati cheklangan insonlarning atrof-muhitga moslashuvi, Markaziy Osiyo yosh rejissyorlari laboratoriyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Teatrda inglizcha subtitrler bilan taqdim etiladigan spektakllar mavjud, shuning uchun "Ilhom" teatriga chipta sotib olgan xorijiy tomoshabinlar ham sahnada nima sodir bo'layotganini tushunishlari mumkin.

Biroq "Ilhom" repertuarida adabiy manbaga asoslanmagan spektakllar ham bor. Masalan, "I love you, but" sahna asari 11-teatr studiyasi bitiruvchilari haqida. "Baxtli qashshoqlar" sahna asari esa improvizatsiya va nutqqa asoslangan bo'lib, undagi hazil-huzillar va so'zlar sahnada paydo boladi.

"Ilhom"ga tashrif buyuruvchilar uchun aynan nimani ko'rishni tanlash qiyin – sababi bu teatr juda g'ayrioddiy va rang-barang.

Badiiy rahbarning fikricha, "Ilhom" – "noto'g'ri" teatr. Bu yerda bizga tanish bo'lgan ustunlar, dabdaba yoki hashamat yo'q. Muhimi, bu yerda shinamgina kichkina sahna, tomoshabinlar zalidan turib deyarli qo'l cho'wsa yetgulik masofada joylashgan aktyorlar, har bir insonning xotirasida uzoq vaqtga saqlanib qoladigan sahna asarlari bor.

DARYA PENZOVA



# THEATRE OF OUTSIDE THE BOX

From the very beginning, Ilkhom gathered within its walls young, talented, creative and bold people. A lot of young artistic people were gathering here and even the first discos in Uzbekistan were held. This was the place for new ideas and new experiences.

*- It was a theater studio of a new format: without columns and a stage. At that time it was unusual. Professional actors from other state theaters worked here, but they were in search of something fresh. Therefore, after their main work, they came here and rehearsed at night, - says the artistic director of the theater, Boris Gafurov.*

Subsequently, the studio grew into a real theater and got its name "Ilkhom", which means "inspiration". This year, the audience will celebrate the 47th theatrical season, which is almost impossible for an underground theater, because Ilkhom exists without investments from the state. The only source is money from ticket sales.



For many years, the Ilkhom Theater has been inspiring not only its audience, but also artists, musicians, tourists and other bright people who need a variety of emotions.

From the very beginning, there were performances banned by Soviet censorship. Such plays as Duck Hunting by Aleksandr Vampilov and The Dragon by Eugene Schwartz were not played in Leningrad or Moscow, but they were played here, in Tashkent.

The audience came to the performances free of charge and by pre-registration. People were coming and quietly watching the magic from the miniature stage of the chamber theater. Sometimes performances could start at twelve at night or one a.m. They tried to close the theater more than once, denunciations were written, devastating articles in press, but Ilkhom survived no matter what.

Over time, the theater began to gain more and more popularity, and tickets cost money. The performances of the Ilkhom Theater were presented at more than 35 International Theater Festivals in 22 countries, including Austria, Bulgaria, Germany, Italy, Holland, Denmark, Norway, Ireland, Yugoslavia, USA, Russia, Japan, France, Poland and others. In 1989, the first theater studio was opened, and most of the modern actors of Ilkhom are graduates of its studio.


Today the theatre has its satellite projects, such as: IlkhomRockFest, IlkhomJazzClub, Thetre+Music – master classes of Artyom Kim, Musical evenings by the Omnibus Ensemble Inclusive Theater Laboratory – socialization of people with disabilities.

The theater has performances with English subtitles. However, Ilkhom's repertoire includes performances that are not based on a literary source. For example, the play "I love you, but" is based on the stories of young graduates of the 11th theater studio. And the play "Happy Beggars" is based on improvisation – speech, jokes and words appear on the stage. It is difficult to choose what exactly to see in Ilkhom - this theater is so unusual and diverse.

According to the artistic director,

Ilkhom is the theatre that stands outside the box. There are no columns, pomposity or luxury. But there is a cozy small stage, actors who are next to the auditorium almost at arm's length, and plays that will remain in minds of everyone for a long time.

DARYA PENZOVA





Xizmatlar litsenziyalangan

# Sovg‘alar dunyosi do‘koni

30 yildan buyon shahar aholisiga va shahrimiz  
mehmonlariga xizmat ko‘rsatib kelmoqda.  
Bizning do‘konimizda siz xohlagan va siz istagan  
sovg‘ani xarid qilishingiz mumkin.



## The Gift World

The store has bee open in Tashkent for  
**30 years.** You can always find a  
perfect gift for you and your beloved in  
our store

Mirpodarkov2525  
✉ Mirpodarkov@mail.ru

📞 97 750 25 25  
📞 71 268 19 69

# MOTOHAYDOVCHILARNING

Bu yigitlar zamonaviy moto-sayohatning vakillari hisoblanadi – ular boshqa mamlakatlar, shaharlar bo'ylab sayr qilishadi, turli festival va tadbirlarga tashrif buyurishadi. Bugungi kunda O'zbekistonda motokros va motosport davlat tomonidan, shuningdek, xususiy sektor vakillari va turli kompaniyalar tomonidan faol targ'ib qilinmoqda.



O'zbekistonda 2006-yildan mototsiklga ishtiyoqmand yigitlar tadbirlar tashkil etib, birlgilikda tog'larga chiqish, muloqot qilishlari davomida motosportning rivojlanishi boshlandi.

Aksariyat tashkilotchilarning so'zlariga ko'ra, mototsikl haydovchilarning ko'p qismi Toshkentda bo'lganligi sababli, mototsikl tadbirlari asosan shu yerda o'tkaziladi. Ammo Farg'ona vodiysi, Samarcand va Buxoro yigitlari ham o'zlarining motouchrashuvlarini yushtirishga harakat qilishmoqda.

O'zbekistonda har yili bir nechta mototsikl tadbirlari o'tkaziladi. Joriy yilning 14-may kuni Toshkent shahrida Markaziy Osiyo mototsiklchilar uyushmasi va O'zbekiston mototsiklchilar uyushmasi ko'magi asosida Markaziy Osiyo moto-mavsumining katta ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbir keng qamrovli bo'ldi: ko'plab o'zbekistonliklar hamda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya va Germaniyadan mehmonlar yig'ildi.

Mahalliy moto-tadbirlar Qozog'iston yoki Rossiyada o'tkaziluvchi tadbirlardan farq qiladi. Masalan, boshqa mamlakatlarda bunday tadbirlarga rok-musiqa, avto va motosport yulduzlari albatta



ishtiroy etishadi. Festival yakunida doimo salyutlar otiladi. Bizning festivallar esa nisbatan oddiyroq. Shunday mehmonlar borki, ular 2010-yildan beri har yili O'zbekistonga, moto-mavsumga tashrif buyurishadi va har gal xalqimizning naqadar oqko'ngil va xushchaqchaqligidan yana hayratga tushishadi.

Mototsikl haydovchilarining so'zlariga ko'ra, ular motomadaniyat bilan tanish bo'limgan shaxslardan o'zgacharoq. "Motosayohatchining ko'zlaridan hayot hikmatini o'qish mumkin", - deb hisoblashadi ular.

# SHARQONA SAYOHATI



## ISTIQBOL

Ushbu festival tashkilotchilari O'zbekistonda moto-madaniyat rivojiga umid bilan qarashmoqda. Yo'llarda mototsikllar ko'payadi, yo'llardagi tirbandliklar tufayli, odamlar bu transport turining qanchalik qulay ekanligini tushuna boshlaydilar. Bizning hududda mototsikl sportini rivojlantirish uchun qulay sharoit bor. Qolaversa, O'zbekistonda iliq iqlim hukm surgani bois, deyarli butun yil davomida mototsikl haydash mumkin.

"Yanada ko'proq odamlar moto-madaniyatga qo'shiladi. Ular tez-tez moto-festivallar uyushtirib turadigan bo'lishadi. Tez orada mamlakatimizda mototsikl haydovchilari ancha ko'payadi", - deb umid qilmoqda motosport ishqibozlari.

# BIKERS' PARTY IN UZBEKISTAN

The Bikers' Party in Uzbekistan represent a modern motorcycle gang - they ride around other countries, cities, attend various festivals and events. Today in Uzbekistan, motocross and motorsport are actively promoted by the authorities, as well as by individuals and various companies.

## THE BEGINNING

The development of motorsport began in Uzbekistan 2006, when a small group of people who were passionate about motorcycles began to organize events, ride to mountains together and communicate. According to many organizers, motorcycle events are mainly held in Tashkent, because most of the motorcyclists are here. However, groups from the Ferghana Valley, Samarkand and Bukhara are also trying to organize their own motor meetings.

Every year Uzbekistan hosts several events of this kind. This year, on May 14, the big opening of the Central

Asian motorcycle season took place in Tashkent with the support of the Association of Motorcyclists of Central Asia and the Association of Motorcyclists of Uzbekistan. The event was large-scale: many Uzbeks and guests from Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Russia and Germany gathered. Local motorcycle events are different from those in Kazakhstan or Russia. In other countries, for example, stars of rock music, auto, and motorsport also attend.

Some guests have been coming to Uzbekistan for the motorcycle season since 2010 in total 12

consecutive years. Moreover, each time they laud kindness and cheerfulness of our people. Bikers claim that they are different from those who are not familiar with this culture.

"In the eyes of an avid motorcycle traveler, you can read the wisdom of life," they say.





## PERSPECTIVE

The organizers of these festivals hope that motorcycle culture in Uzbekistan will develop rapidly. There will be more motorcycles on the roads because people will realize how convenient transportation is when there are more and more traffic jams in the streets. In our region, the background for the development of motorcycling is good. Moreover, in Uzbekistan you can ride a motorcycle almost all year round due to the warm climate.

"More and more people will join motorcycle culture. They will gather more often at motorcycle festivals. And soon, there will be much more bikers in our country," motorsport fans hope.

DARYA PENZOVA



# AVIACHIPTA PULINI QANDAY QAYTARIB OLISHIM MUMKIN?

Aviachipta pulini qaytarish uchun so'rovnama topshirishingiz mumkin bo'lgan ikki xil vaziyat mavjud:

**Aviachiptani majburiy qaytarib berish** – parvoz bekor qilingan yoki kechiktirilgan holatlarda.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi va Belorusga kirish taqiqlangan shaxslar ro'yxatida turganligi haqida uchib boriladigan mamlakatdan olingan rasmiy ma'lumot taqdim etilganida, ushbu mamlakatlar shaharlariga uchadigan qatnovlardan yo'lovchilarning ixtiyoriy voz kechishi ham istisno tariqasida aviachiptani majburiy qaytarib berish hisoblanadi.

**Aviachiptani ixtiyoriy qaytarib berish** – yo'lovchi o'z xohishi bilan tashuvni rad etish huquqiga ega.

Shuni yodda tutish kerakki, chiptani qaytarib berish faqat xarid qilingan joyda amalga oshirilishi mumkin.

Agar siz [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) sayti orqali chipta sotib olgan bo'sangiz, uni qaytarish uchun veb-saytimizdagи qaytarib olish so'rovnomasini to'dirishingiz kerak bo'ladi. To'lovni qaytarish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilgach, aviakompaniya 15 ish kuni ichida chipta uchun to'lov amalga oshirilgan kartaga qo'llaniladigan tarif qoidalariga muvofiq summalarini to'lab beradi.

Agar sizning chiptangiz Uzbekistan Airways agentlarining ofislarida yoki

Ba'zida rejalarimiz keskin o'zgarishi mumkin va bu holatda sayohatni bekor qilishimizga to'g'ri keladi. Aviakompaniya yo'lovchilarga aviachiptalarning turli xildagi tariflarini tanlash imkonini taqdim etganligi sababli, Uzbekistan Airways jamoasi chipta xarid qilayotgan paytda qayta rasmiylashtirish yoki to'lovni qaytarib olishning barcha qoidalari bilan tanishib chiqishni tavsiya qiladi. Chunki, sizga qaytarib berilishi kerak bo'lgan pul miqdori tarif shartlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi va aviachipta sotib olingan yoki amalga oshirib bo'lingan parvozlar sanasiga bog'liq bo'ladi.

boshqa veb-saytlar orqali sotib olingan bo'lsa, chipta narxini qaytarib olish uchun ular bilan bog'lanishingiz zarur bo'ladi.

Agar siz aviachiptani Toshkentda, Uzbekistan Airways Sales filialidan xarid qilgan bo'sangiz, u holda chiptani qaytarib berish muddati ichida Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 51-uyda joylashgan ofisga kelib, ariza berishingiz mumkin. Foydalanimagan mablag'lar to'lov amalga oshirilgan valyutada naqd pul shaklida yoki to'lov qilingan kartaga qaytariladi.

Agar siz Uzbekistan Airways Sales filialidan aviachipta sotib olgan, lekin ayni vaqtida xorijda bo'sangiz, to'lovni qaytib olish uchun aviakompaniyamizning xorijdagi vakolatxonasiга murojaat qilishingiz mumkin. Vakolatxonalarimizning manzillari ko'satilgan joriy ro'yxatni [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) veb-saytimizda topishingiz mumkin.

Rossiya banklarining MasterCard va VISA kartalari orqali puli to'langan, foydalanimagan aviachiptalar uchun mablag'larni qaytarish aynan shu kartalarga amalga oshiriladi. Biroq, ushbu to'lov tizimlari hozirda Rossiya Federatsiyasi hududida ishlamayotganligi sababli, yo'lovchilar ular qayta faoliyatini boshlaganlaridan so'nggina pulni qaytarib olishlari mumkin bo'ladi.



MATLUBA KULIYEVA

# How CAN I GET MY REFUND?



There are **two types** of situations where you can apply for a refund:

## Involuntary refund

– in case of cancellation or delay of the flight.

Additionally, there are exceptions on voluntary refusal by passengers on flights to the cities of the Russian Federation and the Republic of Belarus upon presentation of official information received from the appointed destinations on the day of departure when these passengers are in the list of persons who are not allowed to enter these countries and this case also can be acceptable for getting involuntary refund.

## Voluntary refund

– each passenger is entitled to voluntarily transportation refuse. Important: you can apply for a refund only at the place of your purchase. If you have purchased an airline ticket at [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com), you need to fill out a refund at our website. After reviewing the application for refund, the airline pays for the amount according to the rules of the fare to the card which payment for the ticket was made within 15 working days.

If your airline ticket was purchased at the Uzbekistan Airways agents' offices or through other websites, please contact them for a refund.

Uzbekistan Airways company advises to get acquainted with all the rules of reissuing or return when purchasing ticket. The amount of the refund is determined by the terms of the fare and depends on the date of the ticket purchase or the flights already completed.


If you have purchased an airline ticket from Uzbekistan Airways Sales in Tashkent, you can visit the ticket sales office in Tashkent, Mirabad district, Amir Temur Avenue, 51 and fill out the return application during the active refund period. Unused money will be paid in cash or to the card with which payment was made in the same currency.

If you are abroad, but at the same time your airline ticket was purchased in a branch of Uzbekistan Airways Sales, you can contact the representative office of our airline abroad. You can find the current list of representative offices with addresses at [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) website.

Refund of unused money for airline tickets paid by MasterCard and VISA cards of Russian banks is made to the same cards. However, since these payment systems do not work in the territory of the Russian Federation currently, passengers will be able to receive a refund after they start operating again.

# TBILISIGA TASHRIF BUYURISH UCHUN

# 5 SABAB




## REASONS TO VISIT TBILISI

Tbilisi – madaniy va ijodiy inqilob olamining yangi markazidir. Aynan shu zaminda yangi san'at va madaniyat obyektlari paydo bo'lib, keng ko'lamlı texno-tadbirlar bo'lib o'tmoqda va moda sanoati inqilobga yuz tutmoqda. Faqat Tbilisidagina har bir inson maftunkor Gruziya bo'ylab tarqaladigan shaharning o'ziga xos yurak ritmini his qilishi mumkin.

Tbilisi is the new center of the world of cultural and creative revolution. It is where new objects of art and culture are created, large-scale techno parties take place, and the fashion industry faces revolution. Anyone can feel the special heartbeat of the city only in Tbilisi, which spreads throughout incredible Georgia. In the capital you can enjoy going on the following journeys:

# 1



Poytaxtda siz:

**GRUZIYA SSR AVTOMOBIL YO'LLARI VAZIRLIGINING BOSHQA BINOLARDAN FARQLI G'AYRIODDIY BINOSINI KO'RISHINGIZ MUMKIN**

Ushbu bino yangilikka ishtiyoqmand insonlarni o'ziga jalb etadi. Arxitektorlar ushbu inshootni sovet eksperimental arxitekturasi bilan bog'liq deb hisoblaydilar, fotograflar esa yirik kublardan iborat noodatiy binoni suratlarga muhrlaydilar. Binoning vertikal hajmi uzra liftlar va zinapoyalar o'rnatilgan. Ayni paytda bu yerda "Gruziya Banki" AJ ofisi joylashgan. Har bir sayyoh ushbu binoni tomosha qilish bilan birga uning mahobati va avangard dizayniga maftun bo'lishi turgan gap.

**See the extraordinary and unique architecture of the former Ministry of Highways of the Georgian SSR.**

The former Ministry of Highways will certainly attract fans of the avant-garde. Architects associate this place with experimental architecture of Soviet era, while photographers take pictures of its signature design. In particular, the building consists of large-scale cubes with elevators and stairs erected inside the vertical volumes of the building. Currently, the office of the Bank of Georgia is located here. Every tourist ought to see this building and admire its majesty and bold design.

## TANTANALAR SAROYIGA TASHRIF BUYURING!

Saroy 1985-yilda qurilgan bo'lib, nikoh marosimlari va boshqa bayram tadbirlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan edi. Soatlar va qo'ng'iroqlar sirtiga burj belgilari tushirilgan bo'lib, devorlar naqshlar va vitraj oynalar bilan bezatilgan. Binoning gumbaz qismi va dumaloq hajmlari pravoslav cherkovini yodga soladi. Bir necha o'n yillar avval bo'lgani kabi, bu yerda hali hamon nikoh marosimlari o'tkaziladi va tadbirlar zali ham o'z faoliyatini olib bormoqda.

### Visit the Palace of Ceremonies

The palace was built in 1985 and was intended for holding wedding ceremonies and other festive events. Inside, there is a beautiful clock with the signs of the zodiac were painted on both its face and the bells. Additionally, the walls are embedded with murals and stained-glass windows. Due to the cupola and round volumes, the building can be associated with an Orthodox church. In fact, wedding ceremonies are still held and a banquet hall is still in service, as it was several decades ago.

# 2




## MARKAZIY RUSTAVELI XIYOBONI BO'YLAB SAYR QILING!

Rustaveli xiyobonida siz yodgorlik namunalaridan tashqari, ko'plab haykaltaroshlik namunalarini ham topishingiz mumkin. Bu yerning barcha ko'chalarini noodatiy, kichik haykallar bilan to'la. Tbilisiga tashrif buyuruvchi sayyoqlar izlaydigan bu yerdagi eng mashhur haykal – devordan chiqib kelayotgan jaz musiqachisining bo'rtma haykalidir. Tbilisida bo'lib turgan paytingizda siz markaziy Rustaveli xiyoboni bo'ylab sayr qilib, ushbu haykalchalarni topishingiz mumkin.

### Walk along the central Rustaveli Avenue

You can see numerous sculptures as well as monumental structures on Rustaveli Avenue. Principally, all the streets of this place are structured with unusual and small-sized statues. The most famous sculpture here, which tourists in Tbilisi are eager to see, is a statue of a jazz musician coming out of the wall. Having been in Tbilisi, you can walk along the central Rustaveli Avenue and find these miniature sculptures there.



## SERJILO "KALEYDOSKOP" YO'LAGIDA SAYOHAT QILING!

Tbilisidagi turarjoy binolarida o'zining yorqinligi bilan ajralib turuvchi qadimiy ko'rinishdagi asosiy tashrif eshigi namunalarini uchratish mumkin. Eng mashhur eshik Sololaki hududidagi yog'och uyda joylashgan. U 19-asrning turfa rangdagi vitrajlari bilan bezatilgan. Bu joy, ayniqsa tong payti, quyosh nurlari ostida jilvalanadigan vitrajning aksi polga tushib turadigan mahal ajoyib go'zallik kasb etadi. Ushbu eshikni topgan sayyo, bunday go'zallikdan bahramand bo'lishi va ushbu maskanning barcha go'zalligini suratlarga muhrlashi mumkin.

### Visit the "Kaleidoscope" front door

In residential buildings of Tbilisi, you can find genuine old front doors, which are distinguished by their brightness. The most famous front door is located in a private wooden house in the Sololaki district. It is decorated with various colorful vitrages of the 19th century. This place is gorgeous in the morning, when all the windows paint the floor with the various colors in the sun. Within the vicinity of this front door, every tourist can take amazing pictures and capture all the beauty of this place.

## GRUZYA "STRIT-ART"IDAN HAYRATLANING!

Shahar me'morchiligidagi devorlardagi rasmlar alohida o'rın tutadi, ularning chizilganiga 20 yildan bir oz ko'proq bo'lgan. Dastlab gruzinlar strit-art shahar qiyofasiga putur yetkazishidan tashvishga tushishgan, ammo bugungi kunda ko'cha san'ati shahar hokimiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Endi, atigi bir kechaning o'zida turar joylar devorlarida katta hajmli va ijodiy suratlar yoki matnlar paydo bo'lishi mumkin. Agar siz Gruziyaga tashrif buyursangiz, har qanday holatda ham kun sayin o'z ona shahri Tbilisi devorlari va ko'chalarini bezatishga hissasini qo'shayotgan ushbu shahar aholisining jo'shqinligi va ijodkorligini ko'rishga muvaffaq bo'lasiz.

### Admire Georgian street art

Drawings on the walls play a significant role in the image of the city. Street art in Tbilisi is 20 years old. At first, Georgians were displeased by it and believed that the drawings would damage the view of the city, but today street art is embraced by the city authorities. Nowadays new creative pictures or texts can appear on the walls of houses overnight. If you visit Georgia, you will undoubtedly see the enthusiasm and creativity of the inhabitants of this city, who are trying to decorate the walls and streets of their dear Tbilisi day by day.



Uzbekistan Airways **Toshkent – Tbilisi – Toshkent** yo'nalishi bo'yicha muntazam parvozlarni bajarishi to'g'risida eslatib o'tadi. Parvozlar haftasiga ikki marta - seshanba va juma kunlari amalga oshiriladi.

Toshkent – Tbilisi – Toshkent yo'nalishi bo'yicha aviachiptalar  
TAS-TBS-TAS 342 EUR'dan - bagajsiz  
TAS-TBS-TAS 385 EUR'dan - bagaj bilan

Shuningdek aviakompaniya  
**Toshkent – Batumi – Toshkent** xalqaro yo'nalishi bo'ylab mavsumiy aviaqatnovlarni bajarmoqda. Parvozlar haftasiga ikki marta – chorshanba va shanba kunlari amalga oshiriladi.

Toshkent – Batumi – Toshkent yo'nalishi bo'yicha aviachiptalar  
TAS-BUS-TAS 339 EUR'dan - bagajsiz  
TAS-BUS-TAS 385 EUR'dan - bagaj bilan

Uzbekistan Airways announces regular flights on the route **Tashkent – Tbilisi – Tashkent**. Flights will be operated twice a week on Tuesdays and Fridays.

The fare of airline ticket Tashkent - Tbilisi - Tashkent starts from  
**TAS-TBS-TAS 342 EUR without luggage**  
**TAS-TBS-TAS 385 EUR with luggage**

The company also operates seasonal flights on the international route **Tashkent – Batumi – Tashkent** twice a week - on Wednesdays and Saturdays.

The fare of airline ticket Tashkent - Batumi - Tashkent starts from  
**TAS-BUS-TAS 339 EUR without luggage**  
**TAS-BUS-TAS 385 EUR with luggage**

## YO‘LOVCHILAR UCHUN FOYDALI MA’LUMOTLAR

Hurmatli O‘zbekiston mehmonlari. Sizga qulaylik yaratish maqsadida mamlakatimizda mavjud bo‘lgan xizmatlar haqida muhim ma’lumotlar bilan tanishishni taklif qilamiz.

Tez yordam	103	24/7
Yong‘in xavfsizligi	101	24/7
Turistik politsiya stansiyasi	+998 70 762 40 29	24/7
Baxtsiz hodisalar byurosi	+99871 233 28 14	24/7
Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi	1050	24/7

## USEFUL INFORMATION FOR PASSENGERS

Dear guests of Uzbekistan. For your comfort, we offer you useful information about important services available in our country.

Ambulance	103	24/7
Fire Department	101	24/7
Tourist police station	+998 70 762 40 29	24/7
Bureau of accidents	+99871 233 28 14	24/7
Emergency department	1050	24/7

# MAHALLIY AVIAQATNOVLAR DOMESTIC FLIGHTS

## BIZNING FLOT OUR FLEET

BOEING 757  
BOEING 767  
BOEING 787  
AIRBUS 320  
AIRBUS 321



## PARVOZLAR FLIGHTS

● SEASONAL  
● REGULAR



safety • stability • comfort

THE INFORMATION IS VALID FOR JUNE 2022

 [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com)






# Endi aviachipta olish yanada oson

yangi saytimizdan yoki mobil ilovamizdan  
yozgi ta'tilga aviachipta xarid qiling

## BUYING TICKETS IS EASIER NOW!

You can buy tickets for summer holidays on our  
new website or mobile application.



Rasmiy sayt orqali aviachipta xarid qilib olayotganda  
**3% chegirma** taqdim etiladi

**3% discount** is available for tickets  
purchase at the official website

safety • stability • comfort

safety • stability • comfort

safety • stability • comfort

safety • stability • com

📞 78 140 02 00